

**BILMAY KAFIL BO'LIB QOLDINGIZMI? KAFILLIKNI
QANDAY BEKOR QILDIRSA BO'LADI?**

Bomurotova Shaxrizoda Shokir qizi

*Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq va
qiyosiy huquqshunoslik fakultetining 1-kurs talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada kafillik nima ekanligi haqida, kredit masalasi bo'yicha kafil bo'lish, kafilga yuklatilgan majburiyatlar, kafillarning huquqlari haqida, kafillikni bekor bo'lishi haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Kafil, kafillik shartnomasi, kredit, solidar, kreditor.

Hozirgi kunda ko'pchilik fuqarolar o'zlarining maqsadlariga erishish yoki rejalarini amalga oshirish uchun yetarlicha mablag' bo'lmaganda, davlat tomonidan beriladigan imkoniyatlardan, ayniqsa, kreditlardan keng foydalanishadi. Talab ko'paygani tufayli, kredit olish ham ancha osonlashgan. Bankka borasiz, shaxsingizni tasdiqlaysiz, hujjatlaringizni taqdim etasiz, agar belgilangan talablarga javob bersangiz mablag' sizniki. Asosiy talablar: 18 yoshga to'lgan va 60 yoshdan oshmagan O'zbekiston fuqarosi bo'lish, qarzдорlikni uzish uchun ta'minot va doimiy daromadga ega bo'lish, kredit tarixingiz qoniqarli bo'lishi va albatta, kafil bo'lgan shaxsning mavjudligi, uning ham daramadlari belgilangan ko'rsatkichlarda bo'lishi lozim. Lekin, kafillikning o'zi nima? Kafillik- bu kredit bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini ta'minlashning bir turi. Oldingi davrga qaraganda kamroq bo'lsa ham, banklar hali ham kredit majburiyatlarini ta'minlashning bir usuli sifatida kafillarni, jismoniy shaxslarni jalb qilishni amalda qo'llaydilar. Kafil esa- qarz oluvchi tomonidan kredit bo'yicha majburiyatlar bajarilmagan taqdirda, bank oldida ularni to'liq yoki qisman bajarish majburiyatini olgan, ya'ni qarzдорlikni qarz oluvchi bilan birgalikda to'laydigan shaxsdir. Kredit miqdori qanchalik katta bo'lsa bank ko'proq kafillarni talab qiladi. Shu orqali kredit tashkiloti kreditni qaytarmaslik, majburiyatlarni bajarmaslik xavfini kamaytiradi. Kafil bo'lish uchun ham alohida tartib bergilangan. Istalgan odam kafil bo'la olmaydi. Kafil ham qarz oluvchi kabi qarzni qaytarishga yetadigan ta'minotga, doimiy daromadga ega bo'lishi va bu daromad qarz oluvchidan kam bo'lmasligi kerak. Shundagina u kimgadir kafillik qilishi mumkin. Kafilning qanday javobgarligi mavjud?

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 293-moddasiga muvofiq kafil qarz oluvchi bilan solidar javobgar bo'ladi. Bu shuni anglatadiki, agar qarzдор qarzni to'lashni xohlamasa yoki to'lay olmasa, u holda qarz kafil yoki kafillar tomonidan to'lanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, bank qarz oluvchidan ham, kafildan ham yoki bir vaqtning o'zida ikkalasidan ham kreditni qaytarishni talab qilishga haqli. Qarz oluvchi

va kafil qarz to'liq qaytarilgunga qadar qarz uchun javobgar bo'ladilar. Solidar javobgarlik har bir qarzdor tomonidan bajarilishi kerak bo'lgan majburiyat miqdorini belgilamaydi, ya'ni kreditor qarz oluvchi qancha miqdorda, kafil qancha miqdordagi mablag'ni qaytarishini aniqlab bermaydi. Natijada, kafil bankka qarz oluvchining o'zidan ko'ra ham kreditning ko'proq qismini to'lashi mumkin.

Kafillikdan voz kechish mumkinmi?

Shunday holatlar bo'ladiki, kafil bir qancha vaqt o'tgandan keyingina kafillikning asl mohiyatini tushunadi, kafillik majburiyatlari qiyinchilik tug'dira boshlaydi va bank bilan shartnomani bekor qilishni xohlaydi. Kafil bo'lishni rejalashtirganlar shuni bilishlari kerakki, bank bilan shartnomani faqatgina qarzdorlik tugaganda, qarz oluvchi va kreditorning roziligi bilan bekor qilish mumkin, biroq bank va qarz oluvchi ko'p hollarda bunga rozi bo'lmaydi.

Kafillik qachon bekor qilinishi mumkin:

1. kreditor oldidagi majburiyat to'liq bajarilganligida;
2. majburiyat kafilning rozilgisiz o'zgartirilganda (foiz stavkasi yoki kredit miqdori oshirilsa);
3. kafillik shartnomasining amal qilish muddati tugaganda;
4. bank kafilning rozilgisiz qarzni boshqa shaxsga o'tkazganda.

Kafillik kredit tarixiga qanday ta'sir qiladi?

Kredit tarixi — bu qarz oluvchi haqida yig'ilgan ma'lumotlar to'plamidir. Unda sizning barcha kredit so'rov va to'lovlaringiz, shuningdek, qarzlaringizni kechiktirganligingiz haqidagi ma'lumotlar mavjud. Kafilning barcha majburiyatlari (summa, foiz va asosiy qarzni to'lash muddati, to'lov sanasi va miqdori va boshqalar) uning kredit tarixida aks ettiriladi. Bu shuni anglatadiki, agar kredit olish uchun ariza berish zarurati tug'ilsa, u holda kafillik majburiyatlari bank tomonidan sizning to'lov qobiliyatingizni baholashda to'liq hisobga olinadi va kerakli miqdordagi kredit olishingizga imkon bermasligi mumkin.

Agar qarz oluvchi kreditni to'lashdan bosh tortsa nima qilish kerak?

Bank oldidagi majburiyatlaringizni bajaring: siz kimga kafillik bergan bo'lsangiz shu shaxsning qarzlarini to'lang. Aks holda, oqibatlar achinarli bo'ladi. Birinchidan, kafil, xuddi qarzdor kabi, qimmatbaho mulkni yo'qotish xavfini o'z zimmasiga oladi. Ikkinchidan, kredit tarixi buziladi va kelajakda kredit olish imkoniyati pasayadi yoki umuman yo'qoladi.

Agar qarz oluvchi o'rniga bankka kreditni kafil qaytargan bo'lsa, pulni qaytarish mumkinmi?

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 295-moddasiga ko'ra, qarz oluvchining majburiyatlarini bajargan kafil aslida uning kreditori bo'lib qoladi. Ya'ni kafil qarz oluvchidan pulni qaytarishni talab qilishi mumkin. Agar qarz

oluvchi kafilga qarzni to'lashdan bosh tortsa, kafil sudga murojaat qilishi va o'zining barcha xarajatlarini to'liq qoplash huquqiga ega.

Kafil bo'lmoqchi bo'lgan shaxslarga maslahatlar.

1. Agar yaqin kelajakda siz katta miqdorda kredit olishni rejalashtirayotgan bo'lsangiz, unda sizning to'lov qobiliyatingizni baholashda kafil sifatidagi majburiyatlaringiz bank tomonidan hisobga olinishini yodda tuting, ehtimol kafillikdan voz kechish maqsadga muvofiqroqdir.

2. Moliyaviy ahvoli haqida aniq tasavvurga ega bo'lmagan shaxsga kafil bo'lishga rozi bo'lmang.

3. Agar siz kafil bo'lishga qaror qilsangiz, kredit miqdori va muddati, foiz stavkasi,

shuningdek, qarz oluvchining o'zi (fuqaroligi, ro'yxatdan o'tgan joyi, ish joyi, oilaviy ahvoli va boshqalar) to'g'risida ham aniq ma'lumotlarni bilib oling.

4. Qarz oluvchi shaxs o'rniga kreditni qaytarishga to'g'ri keladigan holat uchun moliyaviy imkoniyatlaringizni oldindan baholang. Agar shunday vaziyat yuz beradigan bo'lsa siz o'zingizga zarar yetkazmagan holda bank oldidagi qarzdorning majburiyatlarini bajara olishingizga ishonchingiz komil bo'lgandagina kafillikka rozi bo'ling. Shuni hisobga olish kerakki, agar qarz oluvchi kredit bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmasa, unda salbiy kredit tarixi shakllanadi va shu bilan birga bu majburiyatlarni bajarmagan kafillarda ham avtomatik ravishda kredit tarixi yomonlashadi.

5. Qarz oluvchiga kafillik berayotganda, kredit bo'yicha barcha hujjatlarni saqlang va kredit to'langandan so'ng, bu haqda bankdan ma'lumotnoma olishni unutmang.

Kredit masalalariga kirishmoqchi bo'lgan ko'plab aholi vakillarida savollar tug'iladi. Ular bu turdagi savollar bilan ko'pincha bank xizmatchilariga murojaat qilishadi. Lekin biz ijtimoiy tarmoqlarda, turli xil saytlarda ham kafillikka doir savollarga duch kelamiz. Shu sababli, fuqarolar tomonidan ko'plab so'ralgan, kredit ta'minoti uchun jismoniy shaxslarning kafilligi bo'yicha dolzarb savollarga javob berib o'tmoqchiman.

1. Bir vaqtning o'zida ikkita qarzdorning kreditiga kafil bo'la olamanmi?

Sizni ikkinchi kredit uchun kafil sifatida qabul qilinishingiz bankning kredit siyosatiga hamda sizning va mijoz – asosiy qarz oluvchining kreditga layoqatliligini baholash natijalariga bog'liq. Ya'ni sizning daromadingiz ikkala kreditni ham to'lashga va shaxsiy harajatlaringizni qoplashga ham yetsa, siz ikkita fuqaro uchun kafil bo'lishingiz mumkin. Siz boshqa bir kredit bo'yicha kafil bo'lish uchun murojaat qilganingizdan so'ng, bank baholash natijasiga ko'ra murojaatingizni qanoatlantirishi yoki rad etish to'g'risida xulosa berishi mumkin.

2. Agar qarz oluvchi oylik kredit to'lovlarini o'z vaqtida to'lamasa, men kafil sifatida ularni to'lashim kerakmi?

Siz kafil sifatida har qanday holatda qarz oluvchi bilan birgalikda berilgan kreditni, shu jumladan jarimalar va boshqa kredit to'lovlarini to'lash uchun bank oldida javobgarsiz. Agar kafillik shartnomasida solidar javobgarlik nazarda tutilgan bo'lsa, bank qarz oluvchiga va kafilga bir vaqtning o'zida qarzni qaytarish uchun murojaat qilish huquqiga ega. Subsidiar javobgarlik bo'lsa, qarz beruvchi avval qarz oluvchidan qarzni qaytarib olishga harakat qilishi kerak. Agar qarz oluvchi qarzni to'lay olmasa yoki aloqaga chiqmasa, kafildan qarzni undirishga harakat qilinadi.

3. Agar to'lashni rad qilsam nima bo'ladi?

Agar qarz oluvchi ham, kafil ham kreditni to'lamasa, qarz beruvchi sudga murojaat qilish huquqiga ega.

4. Kredit ajratilgandan keyin kafillik shartnomasini bekor qilishim mumkinmi?

Majburiyatlarni bajarishdan bir tomonlama bosh tortishga yo'l qo'yilmaydi. Shu sababli kasallik, ish yoki mol-mulknini yo'qotish, qarz olgan do'sti bilan arazlashish kafillikni rad etish uchun asos bo'lib xizmat qila olmaydi. Qonun hujjatlariga muvofiq, kafillik faqat qarz oluvchi yoki kafil qarzni qaytarganda yoki kafillik muddati tugagandan so'ng bekor qilinadi.

Fikrimizni yakunlagan holda, kafillarga qanday cheklovlar qo'yilishi va ular nimalarga alohida e'tibor berishlari kerakligi haqida xulosa chiqaramiz. Birinchidan, agar qarz oluvchi kreditni to'lamasa, siz kafil sifatida kreditni to'lashingiz kerak bo'ladi. Bu yerda gap nafaqat qarzning asosiy miqdori, balki foizlar, komissiyalar va jarimalar haqida ham ketmoqda.

Ikkinchidan, kafillik shartnomasini tuzishda siz javobgarlik turiga e'tibor berishingiz kerak. Javobgarlik solidar yoki subsidiar ko'rinishda bo'lishi mumkin. Solidar javobgarlikda qarzdor to'lovlarni amalga oshirmasa, bank kafildan qarzni to'lashni talab qilishi mumkin. Subsidiar javobgarlikda esa kafilga da'vo qilishdan oldin bank avval qarzdor kreditni to'lay olmasligi to'g'risida dalillarni to'plashi kerak bo'ladi. Uchinchidan esa, agar siz kredit uchun kafil bo'lishga rozi bo'lsangiz, yaxshilab o'ylab, mas'uliyat bilan qaror qabul qiling – oylik to'lovlar miqdorini va ularning byudjetingizga ta'sirini baholang, chunki qarz oluvchi tomonidan kredit majburiyatlari qaytarilmagan taqdirda siz qarzni to'lashingiz kerak bo'ladi. Shuning uchun, kimgadir kafil bo'lmoqchi bo'lsangiz, imkoniyatlaringizni to'g'ri baholang!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi <https://lex.uz/mact/-111189>
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Xo'jalik sudi sudlov hay'atining qarori <https://lex.uz/uz/docs/-2838821>
3. <https://depozit.uz/news/agar-qarz-oluvchi-kreditni-qaytarmasa-kafil-nima-qilishi-kerak>